www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

KONSEPT – ANTROPOSENTRIK PARADIGMANING ASOSIY O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA

Nurdinbayeva Nargizaxon Maxammadjon qizi
Namangan davlat universiteti 10.00.01 – O‘zbek tili 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada konsept antroposentrik tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri ekanligi, antroposentrik paradigmaning shakllanishi va konsept termini bo‘yicha bir necha xil ta’riflar va ayrim g‘oyaviy qarashlar bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: antroposentrik paradigama, til shaxsi, konsept, kognitiv-semantik tahlil, mental tuzilma.

XXI asr bo‘sag‘asida an’anaviy va struktur tilshunoslik bag‘ridan neolingvistika yoki antroposentrik lingvistika o‘sib chiqdi. Bunday lingvistikaning rivoji jahonda gumanitar fanlarga diskursiv burilish deb nomlangan davrga to‘g‘ri keldi. Tilshunoslik ilmiy paradigmasiga “til shaxsi” kategoriyasining kiritilishi ilgari tilshunoslik nazaridan chetda qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo‘lgan fanlarda keng qo‘llanilgan shaxs, ong, tafakkur, faoliyat, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o‘zlashtirilishiga olib keldi [1, 53]

Antroposentrik paradigma bu tadqiqotchilar qiziqishlarining obyektdan subyektga o‘zgarishi, yo‘naltirilishi, ya’ni insonning tilda, tilning esa insonda tahlil qilishinishidir. I.A.Bodeun de Kurtene ta’biri bilan aytganda, “til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko‘ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo‘ladi [2, 6]

Antroposentrik paradigmaning shakllanishi tilshunoslikda yangi eraning boshlanishiga, tilni tadqiq etishda yangi vazifalar, inson omilining asosiy tushuncha sifatida e’tibor markazga tortilishi va uni tavsiflashda o‘zgacha metod va usullar qo‘llashda yangicha yondashuvlarga turtki bo‘ldi. Ayniqsa, tilshunoslikning bir qator fanlar bilan integratsiyasidan yangi sohalar shakllandi [3,266] va o‘zaro hamkorlik natijasida ko‘plab terminlar o‘zlashtirilib, tadqiqot obyekti sifatida tahlil etildi.

Psixologiyaning obyekti hisoblangan konsept endi tilshunoslikning asosiy o‘rganish argumentiga aylandi. Konsept termini turlicha ta’riflanadi va ko‘plab tilshunos-tadqiqotchilar g‘oyalarini tavsiflab berishgan. Konsept nafaqat tilshunoslik termini hisoblanadi, balki u adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik kabi fan sohalarida ham o‘z aksini topgan. Ushbu termin keng tarqalganiga qaramay, u hozirgacha aniq bir ta’rifga ega emas va shu bilan birga fanning turli sohalarida turlicha ta’riflanadi [4,27]

Keyingi tadqiqotlarda konsept terminiga turlicha yondashuv uchraydi. Prof. Sh.Safarovning “Semantika” monografiyasida 8-bob “Konsept va ma’no” qismida shunday aytiladiki, “konsept predmet-hodisalar haqida ma’lumotga ega bo‘lish va to‘plangan ma’lumot asosida kuzatilayotgan hodisalarni tavsiflash hamda tasniflash imkonini beradi” [5,266]

D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasida esa bu terminga N.Mahmudov, Sh.Safarovlar yetarlicha baho berganliklarini qayd etib shunday yozadi: “Konsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Shuningdek, u ayni paytda ko‘p qirrali va ko‘p qatlamli, o‘zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etuvchi tuzilmadir. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi” [6,13]. O‘rni kelganda aytish joizki, ushbu monografiyada konseptga lingvomadaniy birlik sifatida ham ta’rif berilgan.

Prof. B.Mengliyev esa “Konsept, tushuncha va so‘z orasidagi izchil aloqa – nihoyatda keng masala. Bunga jamiyat, milliylik, voqelik va reallik munosabatda katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbeklar “qor” tushunchasini bir so‘z bilan ataydi, eskimoslar esa taxminan o‘nta so‘z bilan qor turlarini farqlaydi va aksincha, biz otning ellikdan ortiq turini alohida-alohida so‘z

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

ajratamiz" [7,52] deya maqolasida ta'kidlaydi. Maqolada "konsept" va "tushuncha" terminlarining o'xshash va farqli tomonlari keltirilib, antinomiyalar haqida ma'lumotlar berilgan.

Tilshunos A.E.Mamatov "Zamonaviy lingvistika" kitobida konseptga madaniy birlik sifatida yondashgan: "Konsept murakkab strukturaga ega bo'lib, bir tomondan, tushunchaning barcha qirralarini qamrab olsa, boshqa tarafdan uni madaniyatning bir ko'rinishi sifatida ifoda etuvchi dastlabki omillar, ya'ni u yoki bu tushunchaning etimologiyasi, tarixi, hozirgi kundagi assotsiativligi, qadr-qimmatligi, konnotatsiyalarini qamrab oladi" [8,97]

"Har qanday konsept turli xalqlarda turlicha ko'rinishga ega. Chunki konsept bir xalqning hayot tarzi, milliy-madaniy xususiyatlari, turmush tajribalari orqali yuzaga keladi. S.A.Askoldov konsept so'zning leksik ma'nosiga qaraganda ancha keng ma'noga ega ekanligi haqidagi fikrni ilgari suradi. D.S.Lixachevning nuqtayi nazaricha esa konsept so'zning ma'nolaridan faqatgina birigagina tegishli mumkinligini e'tirof etiladi. Ammo olimlarning fikricha, "ma'no", "tushuncha" va "konsept" bu bir xil terminlardir [8,98-99] ekanligini qayd etgan.

Konsept hozirda lingvomadaniy tilshunoslik yo'nalishining eng ko'p tadqiq etilgan birligi sanaladi. Konseptlarda ma'lum bir millatning dunyoqarashi, orzu-umidlari, ruhiyati, urf-odatlari, tilining leksik-grammatik xususiyatlari aks etadi. Tilshunosligimizda Y.Sh.Nurmuhammedov "Non" konseptining o'zbek tilida ifodalanishi", D.Muhammadaliyeva "Boburnoma"dagi umr va o'lim konseptli paremalar xususida", M.Shamasiyeva "O'zbek va rus xalq maqollaridagi "Baxt" va "Baxtsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili", S.Meli "Farhod va Shirin" dostonida fano konseptsiyasi", G.Jo'rayev "Konsept va til", D.G'afurova "Lingvokulturologiyada "Sog'inch" konseptining qo'llanishi", T.Yo'ldosheva "O'zbek tilida "Go'zallik" konsepti", I.Bahronova "Tohir Malikning "Alvido, bolalik" asarida farzand konsepti" kabi ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

"Konsept antroposentrik paradigma asosida rivojlanayotgan qator fanlarnning, xususan, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi sanaladi" [9,365]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, konsept barcha fanlar tutashgan o'rinda hosil bo'lgan hamda uning lingvomadaniy, pragmativ, psixolingvistik va kognitiv xususiyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. № 6. – Б. 53.
2. Маслова В.А. Лингвокультрулогия. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –Москва, 2001. – С. 6.
3. Xolmatova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2022. – B. 266.
4. Йигиталиев У. Ўзбек тилида "Одам" ва "Жинс" концептлари билан боғлиқ ассоциатив-вербал бирликлар. –Тошкент, 2020. – Б. 27.
5. Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 266.
6. Худойберганова Д. Матннинг антропосентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 13.
7. Менглиев Б. Концепт-тушунча-сўз занжири ҳақида // Filologik tadqiqotlar: TIL, ADABIYOT, TA'LIM. 2020 1(1). – Б. 52.
8. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. –Toshkent: NOSHIR, 2019. – B. 97-99.
9. Yandashova T. O'zbek tilida "Go'zallik" konsepti // Til va adabiyot tadqiqotlari. – Karabuk, 2020. – B. 365.